



AMALIY SAN'ATDAGI AN'ANALAR VA XALQ USTALARINING PEDAGOGIK MEROSI

Tursunboyeva Iroda Abdurashid qizi

Namangan davlat universiteti

Pedagogika fakulteti Tasviriy va amaliy san'at

Kafedra Rangtasvir dastgohli 4-kurs talabasi

[*hurliman555@icloud.com*](mailto:hurliman555@icloud.com)

Ubaydullayev Maxmudjon Axmadjonovich

Namangan davlat universiteti

Pedagogika fakulteti Tasviriy va amaliy san'at

kafedra o'qituvchisi

Anotatsiya: Ajdodlarimiz asrlar davomida yaratgan amaliy bezak sana'tining namunalarini qadrlash, ulardan amaliy foydalanish, ular orqali yoshlarning estetik didini o'stirish hamda yuksak madaniyatli kishilar qilib tarbiyalashda keng foydalanish lozim.

Yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda yurtimizda qadimdan sayqallangan ajoyib ma'naviy boyliklarni, ulug' olimlarning ibratomuz fikrlarini, "ustoz-shogird" an'analari asosida hunar ustalarining pedagogik merosini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Amaliy san'at, an'analar, kulolchilik, naqqoshlik, keramika, xalq ustalari, naqsh, g'urumsaroy, rishton maktab, pedagogik meros

Kirish: Kulolchilik loydan mo'jizakor go'zallik yaratgan Sharqning eng qadimiy hamda navqiron san'atidir. Bu loy, saxovat, halollik, ezgulik timsolidir. Zero tuproq insonlarning barcha ehtiyojini o'z zimmasiga olgan farovonlik, to'kinlik, rizq-ro'z, go'zallikning oliy ko'rinishi san'atning zaminidir. O'zbek kulolchiligi uzoq tarixga, ajoyib an'analar, shakl, mazmun, ijodiy jarayon va o'ziga xos uslubga ega. Kulolchilik xunari loydan madaniy buyumlar jumlasidan piyola, kosa, tovoq, ko'za, lagan, xurmacha, tog'ora, xum, tandir, o'yinchoqlar, qurilish materiallari va boshqalar tayyorlanadigan soha bo'lib, u uzoq tarixga ega. Mahsus tuproqni o'ta qizdirganda toshsimon bo'lib pishishini, undan xar xil idishlar tayyorlashni odamlar juda qadimdan, aniqroq qilib aytganda neolit davrining boshlaridayoq tushunib yetganlar. Ular avval loydan idish-tovoqlar yasab, gulxonda qizdirib pishirganlar.



Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, al-Xorazmiy, Nizomiy Ganjaviy, Xisrav Dehlaviy, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, Zahiriddin Muhamad Bobur kabi jahonga mashhur olim, shoir va musavvirlar go‘zallikka intilishga chaqirganlar. Bobomiz amir Temur hunar va ilm egalari, yirik mutaxassis olimlar yordamiga tayanib matematika, geometriya, me'morchilik, astronomiya, adabiyot, tilshunoslik, tarix, musiqa, tasviriy san'at va xattotlik kabi sohalarni rivojlantirishga katta ahamiyat berdi. Shaharlarni har tomonlama chiroyli va ulug‘vor qilishga intildi. Jumladan, tosh hamda g‘ishtlik yo‘llar, ken,g katta, ravon ko‘chalar qurgan. Bir-biridan mahobatli binolar soldirgan. Bularning bunyodkorlari, ijodkorlari orasidan amaliy san'at ustalari ham asosiy rol o‘ynaganlar.

Xorazmdagi tuproqqal'a zallari monumental naqshlar bilan bezatilganligi bizga tarixdan ma'lum. VI–VII asrlarda qasrlar va boylarning uylari o‘yma naqshlar hamda tasvirlar bilan bezatilgan.

IX–X asrlarda O‘rta Osiyoda naqqoshlik san'ati avj olib rivojlandi. Arxitekturada g‘isht qadab naqsh solish yuksak darajada taraqqiy etdi. Binolarning ichki tomonlariga ganch, yog‘och o‘ymakorligini qo‘llash rivoj topdi. Ayniqsa, maqbaralarning peshtoqlari, devor va ravoqlari ganch naqshlar bilan juda nafis bezatiladi.

XVIII asrning oxiri va XIX asrda Qo‘qon, Farg‘ona, Buxoro, Samarqand, Xiva va Toshkent kabi shaharlarda etuk xalq ustalari etishib chiqdi. Misgarlik, naqqoshlik, ganchkorlik, chilangarlik va boshqa san'at turlari rivojlandi. Qadimda hunar muqaddas sanalgan. Har bir xalq kelajak avlodlariga o‘zidan qoldirgan takrorlanmas hunarlari bilan qadrlangan. O‘zbekiston qadimda usta hunarmandlar markazi bo‘lgan. Masalan, Samarqand viloyatida Urgut, Farg‘ona viloyatida qo‘qon, Marg‘ilon, Namangan viloyatida Chust hunarmandchilik markaziga aylangan. Hunarmandlar o‘sha davrlarda mahallalarga bo‘linib yashagan. Masalan, XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Buxoroda bo‘yracha mahallasi bo‘lgan. Bo‘yracha mahallasida 120 ta oila yashagan. Har bir kasbkorlik mahallasida qo‘ni-qo‘shnilar o‘rtasida raqobat bo‘lgan. Chunki kimning mahsuloti sifatli bo‘lsa, xalq o‘shaning ishlab chiqargan mahsulotini sotib olgan. Shuning uchun har bir usta sifatli mahsulot tayyorlashga itilgan. Har bir ustaning o‘z rastasi bo‘lgan. Bozorda, odatda, bozor begi bo‘lgan. U barcha rastalarga kiritilgan mollarni kuzatib ularga narx belgilab chiqqandan keyin savdo-sotiq boshlanar edi. bularning barchasi zamirida sharqona tarbiyaviy omil yotadi. Sifatsiz mahsulot ishlagan ustaning bozori kasodga uchragan.

Naqqoshlar o‘tmishda xalq ustalarining eng bilimdoni hisoblangan. Chunki ular madrasada tahsil olib, adabiyot, tarix, musiqa, matematika, kimyo fanlarini yaxshi



bilganlar. Naqqoshlik texnologiyasi avloddan avlodga o'tib kelgan. Qadimda naqqoshlar naqsh yaratish sir-asrorlarini yozib qoldirmaganlar. Faqat shogirdlari bilganlar. Shogirdlari usta bo'lganlaridan so'ng ular ham o'zlariga qarashli bo'lgan shogirdlariga o'rgatganlar. Shunday qilib naqqoshlik san'ati an'ana tariqasida rivojlanib kelgan. Naqqoshlar shogirdlikka o'z bolasini yoki qarindosh-urug'larining bolalaridan olganlar. Shogirdlikka bolalar 7-8 yoshidan olingan. O'qish-o'rganish 7-12 yillar atrofida bo'lgan. Ustozi shogirdlari bilan kunduz kuni ishlagan. Kechqurun esa ustoz rahbarligida xat-savod chiqarilgan. Shogirdlar geometriya va kimyoni o'rganganlar. Boshqacha qilib aytganda, to'laqonli ta'limiy va tarbiyaviy jarayon ketgan. Shogird mustaqil ish bajara oladigan bo'lganidan so'ng ustalar uning ishlarini muhokama qilishib, so'ngra "usta" nomini berishgan. Naqqoshning o'g'li ota kasbini yoshlikdan o'rganib borgan. Bu esa kelajakda yaxshi hunarmand bo'lishiga zamin yaratgan. Ustada o'g'il yoki umuman farzand bo'lmasa, bu kasbni eng yaqin qarindoshining bolalariga o'rgatgan. Xullas, kasbning avloddan avlodga meros qolishi an'ana holda rivojlanib kelgan. Ustaga shogirdlikka berishda quyidagi urf-odatga rioya qilingan. Bolani ustaning oldiga olib borishda o'ziga yarasha tantanaviy marosim bo'lgan. Bolaning ota-onasi hamda qarindosh-urug'lari "bo'y" degan bo'g'irsoq va xolvaytar qilib, ustaning huzuriga kelganlar va bolani "go'shti sizniki, suyagi bizniki" qabilida gaplar bilan uning ixtiyoriga topshirganlar. Keltirilgan pishiriqlar o'sha paytdayoq birgalikda tanovul qilingan. Usta bolaga hunar o'rgatishdan tashqari, butun o'qish davomida uni oziq-ovqat bilan ta'minlab turgan. Kasb o'rgatish tekin olib borilgan. Bularning barchasi xalq amaliy san'ati milliy-amaliy tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Ustoz shogirdga nafaqat amaliy san'atning sir-asrorlarini o'rgatgan, balki o'z shogirdlarining diliga bir qator insoniy sifatlarni singdirib borib, kasbiy va ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalashdek xayrli ishni ham bajara borganlar. Shogirdning shakllanish jarayonida unga nisbatan qattiqqo'l va talabchan bo'lgan. Chunki har bir hunarni o'ta nozik did va sabr-toqat bilangina o'rgani mumkin bo'lgan. Ustalar shogirdlar uchun maxsus odob talablarini ishlab chiqqanlar. Masalan, ular shogirdan pokizalikni, ish vaqtida chalg'imaslikni, egri va noma'qul ishlarga yaqin yo'lmaslikni, ustoz ruxsatisiz biror ishga qo'l urmaslikni qat'iy turib talab qilganlar. Shogird san'at sirlarini puxta egallaganidan so'ng unga oq fotiha berilgan. Marosimda shogird ustozga sarupo taqdim etgan. Ba'zida ustoz shogirdi mustaqil ish boshlashga qiynalmasligi uchun shu kasbda ishlatiladigan asbob va andozalar berar edi. Agar oq fotiha olgan ba'zi bir shogird mustaqil ishlashni xohlamasa, ustozinikida qolib ishlayverishi mumkin bo'lgan. Bunday holda shogird ustoz bilan kelishib ish



haqi olgan. O‘zbek ustalaridan biri ganch-o‘ymakor usta Usmon Ikromovning hayot yo‘li ibratlidir. Yosh usmon usta Rasulhojining qo‘lida 8 yil ishlaydi. Besh yilgacha haftalik haqi 10 tiyindan oshmagan. har payshanba kuni Rasulhoji shogirdi qo‘liga 10 tiyin bergan. Usmon pulni olib bozordan 10 tiyinga 10-12 ta non, otasi va ikki singlisiga egulik olib borgan. Oltinchi yilga o‘tganida ish haqi hafta ichida 50 tiyinga, sakkizinchi yilga o‘tganda esa kundalik ish haqi 1 so‘mga chiqqan. Bu paytda u imorat ishidagi oddiy cho‘pgarlikdan tortib g‘isht terish, suvoq, ganch o‘ymakorligigacha mustaqil bajara oladigan bo‘lgandi. Nihoyat sakkiz yil deganda Usmon Rasulhojidan oq fotiha olib, usta nomiga ega bo‘lgan.

Buxorodagi hamma ustalarga ganch sotadigan boylardan biri Abduqodir bir kuni usta Hayitni chaqirib yangi uyini ganch bilan bezatmoqchiligini aytadi. Usta Hayit bu ishni 22 yoshli Shirin Murodovga topshiradi. Bu ish Shirinning birinchi mustaqil ishi bo‘ldi. Shirin ish rejasini mehmonxona bezaklarini oddiy bejirim nisbatlarini saqlagan holda bir butun ko‘rinishi va boshqalarini hisobga oladi. U mehmonxona va ayvonlarni sharaflar bilan bezaydi undagi o‘yma ganchlar juda mayin, bejirim chiqqanligi sababli ustalar orasida hurmat va obro‘si yana ham oshadi. Usta Hayit kunlardan bir kuni Shirinni oldiga chaqirib: “Men sendan xursandman, endi mustaqil ishlayversang bo‘ladi”, deydi. Azaliy odat bo‘yicha unga 20-30 ta ustalar o‘rtasida “usta” nomi beriladi. Shirin Murodov shundan so‘ng xalq o‘rtasida “usta” degan sharaflari nomga muyassar bo‘ladi. Keyinchalik bu usta san'atkor O‘zbekiston madaniyatining durdona namunalari sirasiga kiruvchi bir qator ma'muriy va madaniy-ma'naviy binolarni qurishda ishtirok etgan. O‘zbekiston xalq rassomi, O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining faxriy akademigi unvonlariga sazovor bo‘lgan. Uning hayot yo‘li o‘quvchi yoshlarga amaliy san'at sirlarini o‘rgatishda namuna bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umarov, X. (2023). THE ROLE OF THE TYPE OF APPLIED ART IN ARCHITECTURAL MONUMENTS (ON THE EXAMPLE OF THE HOJAAMIN GRAVE COMPLEX). *Евразийский журнал академических исследований*, 3(3), 182-187.
2. Шарипжонов, М., & Икромова, М. Д. (2018). TASVIRIY SAN'ATDA ANIMALIZM JANRI. *Научное знание современности*, (5), 94-96.
3. oglu Sharipjonov, M. S. OLIY PYEDAGOGIK TA'LIMDA TALABALARGA MUAMMOLI MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYALARI.



4. Temirova, M. (2023). THE ABILITY OF THE TEACHER TO APPLY THE TECHNOLOGIES OF INDIVIDUAL WORK WHEN TEACHING STUDENTS THE LESSONS OF SKILLFUL PAINTING. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(3), 177-181.
5. Темирова, М. И. (2022). ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОЕ ИСКУССТВО И ЕГО СОДЕРЖАТЕЛЬНАЯ СУЩНОСТЬ. *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches*, 1(2).
6. Temirova Muqaddas, & Turg'unboyeva Maftunaxon. (2023). TASVIRIY SAN'AT FANLARINI MAKTABLARDA O'QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10337479>
7. Temirova Muqaddas, & Nazarov Murodjon. (2023). MAHOBATLI RANGTASVIR KOMPOZITSIYASINING ZAMONAVIY USLUBLARI, SHAKLLARINI TALABALARIGA O'QITISHDA YANGICHA YONDASHUV. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10322777>
8. Amanullaev, A. (2022). SPECIFIC FACTORS OF COMPREHENSIVE STUDY AND ANALYSIS OF THE HISTORY AND CULTURE OF THE UZBEK PEOPLE. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, 11(02), 1-4.
9. Amanullaev, A. A. (2022). CURRENT ISSUES IN THE TRAINING OF FUTURE TEACHERS OF FINE ARTS. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, 11(03), 1-3.
10. Temirova, M. (2024). TASVIRIY SAN'AT ASARLARIDAN (CHIZMATASVIR YOKI RANGTASVIR) NUSXA KO 'CHIRISH. *Евразийский журнал академических исследований*, 4(2 Part 2), 30-34.
11. AKRAMOV, K. (2024). O 'ZBEKISTONDA SHAHAR MADANIYATI VA ESTETIKASINING MILLIY-MADANIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI. *News of UzMU journal*, 1(1.3), 65-68.
12. Акрамов, К. (2022). Afrosiab, Panjikent monuments interior solutions. *Общество и инновации*, 3(6/S), 62-66.